

## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ZAMONAVIY METODLARNI QO'LLASH

Sanaqulova O'lmas Mirzayevna

1- umumi o'rta ta'lif maktabining  
boslang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Bu maqolada boslang'ich sinf óqituvchilari uchun qól keladigan zamonaviy metod va usullar, ularni dars jarayonida qôllash tartibi, maqsadi va vazifasi haqida sóz yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** yoshlar, iste'dod, imkoniyat, individual-psixologik xususiyat, pozitsiya, iroda, g'oya, bilim.

XXI asr texnologiyalar asridir. Bu jumlani aslo rad etib bo'lmaydi. Yillar o'tgani sayin zamonaviy texnologiyalar hayotimizning har jabhasiga kirib kelmoqda. Maishiy xizmat deymizmi, biznes, hattoki, ta'lif tizimiga ham bu zamonaviy texnologiyalar o'z ta'sirini o'tkazmoqda.



Texnologiyalar qancha takomillashib borsa, tizimga qo'yiladigan talablar ham shuncha qiyinlashib, murakkablashib bormoqda.

Ayniqsa, ta'lif sohasidagi o'zgarishlar tubdan qayta ko'rilib, ta'limga yaroqsiz, hozirgi zamonda jahon talablariga javob bermaydigan barcha usul va vositalar, metodlar tizimdan chiqarilib tashlanayotgan bo'lsa, yaroqlilari takomillashtirilib qayta ishlanmoqda, jahon talab darajasidagi usul va metodlar bilan kengaytirilmoqda. Bunga misol qilib, hozirgi kundagi baholash tizimini olishimiz mumkin. Ya'ni avvalda 100 balli, keyin baholi tizim yo'lga qo'yilgan bo'lsa, hozir 5 balli tizim yo'lga qo'yilib, ortiqcha funksiyalar deb topilgan kundalik, jurnal va o'qituvchilarning konspekt ishlari bekor qilinmoqda.

Kundalik o'rniga vazirlik tomonidan ishlab chiqilib joriy etilgan kundalik.com ilovasi orqali haqqoniylar tarzda baholanmoqda. Zamonasiga mos, ilg'or, texnika taraqqiyoti gullagan zamonda tug'ilgan yosh avlod bu ilova va saytlardan bemalol foydalanmoqda.

Uning afzallik va kamchiliklari tahlil qilinib, tuzatilmoxda. Bundan tashqari bunga yaqqol misol qilib ustozlar faoliyatidagi qator o'zgarishlarni olishimiz ham mumkin.

Fan-texnika rivojlanishi nafaqat ta'lif tizimiga balki ta'lif jarayoniga ham ta'sir o'tkazmay qo'ymadni. Hozirgi bolalar qo'lda yasalgan oddiy mozaika, yoki hayvon o'yinchog'iga qiziqmaydi. Balki, ularni raqamlashtirish, yangi dasturlar yaratish, robototexnika orqali noan'anaviy darslar o'tilishini xohlaydi. Bugun o'qituvchilarga ham shunga mos talablar qo'yilmoqda. O'qituvchi zamonaviy texnologiyalarni bilishi lozim, ulardan darsda unumli foydalanishi zarur. Shu bilan bir qatorda o'qituvchi o'z pedagogik mahoratini oshirib borishi zamonaviy usul va metodlarni qo'llashni bilishi zarur [1.20].



Hozirgi kunda ta'lif jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. O'qituvchi dars mobaynida o'quvchilarning diqqatini, jamlashi, darsning qiziq olib borilishi, darsni ham mazmunli, ham izchil olib borishida zamonaviy metodlarning o'rni beqiyosdir.

Ayniqsa, o'yin qaroq bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarida og'zaki va yozma savodxonlikni rivojlantirish, so'zlashuv madaniyatini shakllantirish uchun o'qituvchi tinmay o'z ustida ishlab yangidan-yangi ta'lif usul va vositalaridan foydalanishi lozim. Ustoz ularni qachon qo'llash, qayerda qo'llash, qay usulda qo'llashni ham bilmog'i lozimdir. Ustozlar ta'lif jarayonida faqatgina tayyor metodlardan foydalanmay, o'zi ularni yaratishi, tajribada taqqoslash orqali ularni foydalilarini tahlil qilib saralab olishi va uni boshqa pedagoglarga ham ulashmog'i lozimdir. Jahon talablari asosida ishlangan ilg'or ta'lif texnologiyalarini o'rganib, ularni o'z pedagogik faoliyatida qo'llashi, milliy qadriyatlar va qarashlarimizga moslab ba'zilariga o'zgartirishlar kiritishi lozimdir.

Hozirgi kunda Singapur, Hindiston, Amerika, Angliya kabi davlatlar ta'limda peshqadamga aylangan. Ularning ta'lif tizimini o'rganish, tajribalar orttirish uchun ular bilan shartnomalar tuzish, amaliyot uchun yangi kadrlarni chet el davlatlariga yuborish maqsadga muvofiqli. Dars jarayonida orttirilgan tajribalarni o'z o'quvchilarimizda qo'llash, qolgan pedagoglarga ham ham bu tajribalarni ulashish orqali o'zimizning ta'lif jarayonining sifatini yaxshilash, bu bilan yosh avlodni kasbga yetuk kadr qilib yetishtirish bizning oldimizdagagi maqsadimizdir.

Darslarda o'yin topshiriqlari takrorlash va mustahkamlash darslarida foydalanilsa, ijobjiy natija beradi. Aytishadiku, takrorlash-o'rganishning onasi deb. Bu esa, bolalarning xotiralarini kuchaytiradi hamda erkin fikrlay olish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bugungi kunda ta'lif jarayonida "Oxirgi so'zni men aytay", "Sinkveyn", "Beshinchisi ortiqcha", "Insert", "Kubiklar" kabi qator interfaol metodlardan keng foydalanishmoqda. Zamonaviy texnologiyalardan darslarda videoousul, rolli o'yin taqdimot kabi vositali metodlar ham kundan-kunga o'z foydalanuvchilari safini kengaytirmoqda. Keling ulardan bir nechtasini ko'rib chiqsak.

Bolalar ijodini o'rganish metodi: bu metodda bolalarning muayyan sohadagi qiziqish va intilishlari, qobiliyatlar, layoqati, mazkur sohadagi ishtiyobi shuningdek, ma'lum fan sohasidagi bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash uchun qo'llaniladi. Unda o'quvchilar o'zlarining ijodiy ishlari— kundaliklari, insho, bayon va yozma ish topshiriqlariga qay tarzda javob berayotgani, mustaqil fikrlash qobiliyati muhim vosita bo'lib hizmat qiladi. Metodning afzalligi shundaki, u ma'lum o'quvchiga xos bo'lgan individual imkoniyatlarni to'g'ri ko'ra olish, xolisona baholash, uni o'z ustida ishlab, rivojlantirishga yo'naltirish uchun zamin yaratadi. Bu metodni boshlang'ich sinf o'quvchilarida qo'llash maqsadga muvofiq bo'lib, ayniqsa, 4-sinf o'quvchilarida sezilarli va yaqqolroq natija beradi. Bu yoshda bola o'zi uchun ma'lum bir yo'nalish tanlash arafasida bo'ladi. O'zidan kichik bolalarga o'xshab qarorlarda besabr, yangiliklarga qiziqsa-da o'ch bo'lmaydi. Yana bu usulni og'zakidan ko'ra ko'proq yozmada aniq va lo'nda qilib ifodalay oladi. Shu tariqa o'qituvchi ta'lim texnologiyasidan ko'zlagan maqsadiga yetadi.

“CHARXPALAK” interfaol metodi. O'quvchilar guruhlarga bo'linib, ularga topshiriqlar yozilgan varaq tarqatiladi. Ushbu metod orqali o'quvchilarni o'tilgan mavzularni yodga olish,

mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob berish va o'zini-o'zi baholashga o'rgatadi hamda qisqa vaqt ichida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarni egallagan bilimlarini baholashga qaratiladi. Ushbu metodni qo'llas jarayonida o'quvchilar o'z fikrlarini mustaqil bayon etishga, guruh bo'lib ishlashga, boshqalar fikrini hurmat qilishga o'rganadilar.

“Charxpak” interfaol usulida matematika darslarini qiziqarli tashkil etishimiz mumkin. O'quvchilar jadval asosidagi so'zlar, shakllarni tegishlisini belgilaydilar.

Induksiya metodida o'quvchilar o'qituvchi tavsiya etgan til dalillarini kuzatadi, tahlil qiladi va shu asosda xulosa va ta'riflar keltirib chiqaradi.

Deduksiya metodida o'quvchi tayyor qoida — ta'rif bilan tanishadi va uning mohiymini til dalnlari asosida ochadi.

Bu metodlarning samarasи o'qituvchining savol-topshiriqlari mazmuni grammatic hodisaning muhim tomonlariga yo'naltirilganligiga, izchilligiga, faoliyatni tashkil etish shakllariga, o'quv vositalari (darslik, turli xarakterdagи lug'atlar, rasm, jadvallar, texnik vositalar)ga bog'liq bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida barcha metodlarning muvaffaqiyati o'qituvchining beradigan savol-topshiriqlariga bog'liq. Yo'l-yo'lakay duch kelgan savollar bilan kichik yoshdagi o'quvchining anglash faoliyatini ishga solish kutilgan natijani bermaydi.

So'nggi yillar davomida ta'lim tizimiga an'anaviy metodlar bilan birga zamonaviy pedagogik texnologiya usullari kirib keldi. Ulardan ona tili ta'lim jarayonida foydalanish bo'yicha yutuqlar qo'lga kiritildi. Yuqorida metod va usullar orqali o'tilgan darslar pedagogning mahoratini oshirib, darslarini yanada qiziqarliroq bo'lishiini ta'minlaydi.

**ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi qonuni. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -Toshkent, Sharq nashriyoti manbaa konserni, 1997.
2. Pedagogika / A.Q.Munavvarovning tahriri ostida.-T.:O'qituvchi,1996-200 b.
3. Mavlona R., Vohidova N., Rahmonqulova N. Pedagogika nazariyasi va tarixi. - Toshkent, 2010.
4. Abdullayeva Sh. Umumi pedagogika. – Toshkent, 2021